

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI  
KAFEDRASI

5230100—"IQTISODIYOT" (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA)  
KECHKI TA'LIM Y O'NALISHI TALABALARI UCHUN

"IQTISODIYOT"

FANIDAN KURS ISHLARINI BAJARISH BO'YICHA

## USLUBIY KO'RSATMA

Tuzuvchilar:

katta o'qituvchi Xurramov O.K.

katta o'qituvchi Dilmonov Q.B.

o'qituvchi Toxirov J.R.

Buxoro-2021 yil

**XURRAMOV O.K., DILMONOV Q.B., TOXIROV J.R. 5230100—"IQTISODIYOT" (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA) KECHKI TA'LIM YO'NALISH TALABALARI UCHUN "IQTISODIYOT" FANIDAN KURS ISHI YOZISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA. B.: BUXDU, 2021 YIL. 28 BET.**

**ANNOTATSIYA: Uslubiy ko'rsatmada umumiy qoidalar, kurs ishining mazzusini tanlash va uni bajarish, kurs ishining tuzilmasi va mazmuni, kurs ishini rasmiylashtirish va baholash tartibi, mavzular, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar ko'rsatilgan.**

**TAORIZCHILAR:**

- 1. Tadjiyeva S.U., BuxDU, "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrası dotsenti, i.f.n.**
- 2. Azimov B.F., BuxMTI, "Menejment" kafedrası dotsenti, i.f.n.**

**USLUBIY KO'RSATMA:**

**Buxoro Davlat Universiteti o'quv-metodik kengash 29.05.2021 dagi 10-son yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.**

**UMUMIY QOIDALAR**

Kurs ishi talabalarning dastlabki ilmiy ishi hisoblanadi. Kurs ishlari talabalar mustaqil ishlarining bir shakli bo'lib, uni muvaffaqiyatli bajarish uchun fan to'g'risida aniq tassavurlarga ega bo'lishlari kerak. Talabalar kurs ishining ilmiy, nazariy, g'oyaviy darajasiga, shuningdek, uning yozilishi va rasmiylashtirish tartibiga e'tibor berishlari lozim.

Ishni bajarish jarayonida talabalar kursga oid nazariy bilimlar, maxsus adabiyotlar, huquqiy-normativ aktlar, mavzuga oid yondashuvlardan xabardor ekanligini hamda tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini ko'rsatishadi.

**Kurs ishi maqsadlari:**

- Talabalarning "Iqtisodiyot" fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari jarayonida o'rttirgan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash hamda tizimlashtirish.
  - Kurs ishiga oid muammolarni echishda mustaqil ishlash hamda izlanish olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish.
  - Talabaning nazariy va amaliy bilimlari hamda bu bilimlarni dolzarb iqtisodiy muammolarni echishga tadbiq qila olish qobiliyati darijasini aniqlash.
  - Kurs ishini yozish natijasida talabalar ijodiy fikr tay boshlaydi. Bu esa ularga kelgusidagi bitiruv malakaviy isi va ilmiy ishlarini yozishida katta yordam beradi.
- Kurs ishi vazifalari:**
- ✓ Tanlangan mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini asoslash.
  - ✓ Tanlangan mavzuga oid nazariy ma'lumotlar, texnik-normativ hujjatlashtirish, statistik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlarni o'rganish.
  - ✓ Mavzuga oid muammoli vaziyatlarga o'z fikrini bildirib olish.



- ✓ Tanlangan mavzuni o'rganish va o'tkazilgan tahlillarga asosan xulosalar chiqarish hamda takliflarni shakllantirish.
- ✓ Talab qilingan me'yorlarga asosan kurs ishini rasmiylashtirish.

#### KURS ISHINING MAVZUSINI TANLASH VA UNI BAJARISH

Talaba kurs ishi mavzusini tanlashda dastlab shu fan bo'yicha professor-o'qituvchining ma'ruzalarini diqqat bilan tinglab, hozirgi zamon iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni hamda Prezident asarlarini chuqur o'rganib chiqishi lozimdir.

Kurs ishi mavzusini (1-ilova) talaba o'zi ixtiyoriy ravishda tanlaydi va quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi kerak: Tahlil qilimayotgan mavzusini katta qiziqish bilan o'rganishi, o'zining bilim darajasini kengaytirishi va uni kelajakda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashi uchun amaliyotga tadbir qila olish imkoniga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Kurs ishining rahbari sifatida kafedraning tajribali o'qituvchilari kafedra tomonidan tayinlanadi.

Kurs ishini bajarishda mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan adabiyotlar ro'yxati (5-ilova) bilan cheklanmasdan, ayrim masalalarni batafsil bayon qilish imkonini beradigan qo'shimcha adabiyotlardan ham foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Iqtisodiyot» fanidan kurs ishini tayyorlash va himoya qilish yo'nalishning o'quv rejasiga amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Uni tayyorlashning asosiy bosqichlari:

- Ilmiy rahbar bilan rejanı tasdiqlash va ilmiy rahbar fikrlarini inobatga olib, matnning asosiy variantini tayyorlash;
- Kurs ishini tayyorlab kafedra professor-o'qituvchilariga taqrizga berish;
- Ijobiy taqriz yozilgan kurs ishlari himoyaga qo'yiladi.

Himoya quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

- ochiq himoya;
- individual himoya;
- kichik guruhda himoya.

Muallif ishning asosiy natijalari, xulosa va takliflari bildirilgan taqdimot asosida himoyani amalga oshiradi. Chiqish vaqti – 7 minut. Ishning samaradorligini va o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish maqsadida ko'rgazmali materiallardan foydalanilishi maqsadga muvofiq.

#### KURS ISHINING TUZILMASI VA MAZMUNI

Kurs ishi matnini yozish talabdan katta mas'uliyat talab qiladi va ish vaqtning asosiy qismini egallaydi. Uni yozishda talaba o'zining bilimi va qobiliyatini namoyon qilishi kerak. Rejadagi savollar mantiqan bir-birlari bilan bog'langan bo'lishi, har bir keyingi savol o'zidan oldingi savolning mantiqan davomi bo'lib, bir butunni tashkil etishi kerak.

Tanlangan mavzudan qat'iy nazar ishning tuzilmasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

- ❖ Titul varag'i (1-bet) (2-ilovada namuna keltirilgan)
- ❖ Ilmiy rahbarning kurs ishiga taqriz blankasi (2-bet) (4-ilovaga qarang)
- ❖ Mundarija (3-bet) (3-ilova)
- ❖ Kirish (4-6 betlar)
- ❖ 1-bob. Mavzu yoki muammoni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari
- ❖ 1.1. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.2. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.3. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.4. birinchi bobning paragrafi (agar zarur hisoblangan)
- ❖ 2-bob. O'rganilayotgan mavzu yoki muammoning tahlili, echimiga oid taklif va chora-tadbirlar
- ❖ 2.1. ikkinchi bobning paragrafi



- ❖ 2.2. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ 2.3. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ Xulosa
- ❖ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ❖ Tayanch iboralar
- ❖ Ilovalar (agar mavjud bo'lsa)

**Kurs ishining kirish qismida** mavzuni o'rganish va rivojlantirishning asosiy tendensiyalari ko'rib chiqiladi, joriy vaziyat tahlil qilinadi, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati asoslanadi, asosiy maqsad va vazifalar shakllantiriladi. Bundan tashqari kurs ishining ob'ekti, predmeti, tuzilmasi, izlanish olib boriladigan soha tahlil qilinadi. Kirish qismining hajmi kurs ishi umumiy hajmining 10% dan oshmasligi kerak.

**Kurs ishining birinchi bobi** odatda, o'rganilayotgan mavzuning nazariy jabhalariga bag'ishlanadi va qolgan materialni yoritishning asosi bo'lib xizmat qiladi. O'rganilayotgan jarayonning tabiati, mazmuni va tarkibiy qismlari ko'rib chikiladi.

Ishni mavzuning ob'yekti va predmetini tavsiflashdan boshlash maqsadga muvofiq. Shundan so'ng kichik tarixiy sayohat uyushtirib, mavzuning o'rganilganligini aytib o'tish, savollarni ko'rib chiqish va, albatta, o'z nuqtai nazarini yoritish lozim. Bu bobda adabiyotlarga tavsif beriladi, konstepsiya shakllantiriladi, o'rganilayotgan mavzu tahlili uslubini asoslanadi. Adabiyotlarga tavsif berish jarayonida turli mualliflar fikrlarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinib, o'z nuqtai nazari asoslanishi kerak. Uslubiy qism axborot yig'ish, uni tahlil qilish va qayta ishlash usullari tavsifini nazarda tutadi. Har bir bob yangi sahifadan boshlab yozilishi kerak, undagi paragraflar esa tugagan joyidan 2 qatar tashlab keyingisini yozish tavsifiya etiladi.

**Kurs ishining ikkinchi bobida** birinchi bobda yoritilgan nazariy va uslubiy asoslarga tayangan holda shu mavzu bilan chegaralangan sohadagi

ishlarning joriy ahvoli tahlil qilinadi. Buning uchun amaldagi normativ aktlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari, ilmiy ishlar natijalari, statistik ma'lumotlar (ham davlat miqyosidagi, ham yakka korxonalar miqyosidagi) qo'llanilishi mumkin. Tahlillarga asos bo'lib hisoblanuvchi materiallar kerakli darajada to'liq va ishonarli bo'lishi kerak, qaysikim ularga asoslanib zahiralarni aniqlash va keyingi faoliyat davomida ishlatish mumkin bo'lsin. Bundan tashqari, talaba mavjud faktlarni sanab o'tish bilan cheklanmasdan, ularning afzallik va kamchiliklarini ham yoritishi kerak.

Tahlillar natijalariga asoslanib talaba takliflarni shakllantiradi. Takliflarni shakllantirish o'rganilayotgan mavzuga oid kamchiliklar va imkoniyatlarning to'liq va asoslangan yoritilishini nazarda tutadi.

**Kurs ishining xulosasi** – bu ish davomida topilgan ma'lumotlar sintezidir, ya'ni bunda olib borilgan izlanishlar natijasida qilingan xulosalar mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilinadi. Bundan tashqari asosiy xulosalar va izlanish natijalariga asoslanib takliflar bayon qilinadi. Xulosa hajmi kurs ishi hajmining 5-10%ini tashkil etishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** kurs ishida o'z ifodasini topishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarni guruhlashning eng keng tarqalgan usuli – bu alifbo tartibida joylashtirishdir. Kitob va maqolalar muallif familiyasi yoki kitob, maqola nomi (agar muallifi ko'rsatilmagan bo'lsa) orqali alifbo tartibida joylashtiriladi. Shundan so'ng nashr etilgan joy va sana ko'rsatiladi. Agar jurnal materiali ko'rsatilsa, muallif familiyasi, ismi, otasining ismi, maqola nomi, jurnal nomi, nashr yili va soni ko'rsatilishi zurrur.

**Tayanch iboralar** foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgandan so'ng joylashtiriladi. Unda kurs ishida yoritilgan terminlar, iboralar keltiriladi.

**Ilovalarga** jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar, statistik ma'lumotlar, boshqaruv, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi hujjatlar joylashtirilishi mumkin. Har bir ilova yangi sahifadan boshlanishi kerak. Har bir ilovada uning raqamini aks ettiradigan sarlavha bo'lishi kerak (Masalan: 1-



ilova). Ilovalar joylashtirilgan sahifalar betlanadi, ammo kurs ishi hajmiga kirmaydi.

Ilovalar kurs ishining ko'rgazmaliligini oshiradi, unda aks ettirilgan hodisalar tabiati va o'zaro bog'liqligini hamda ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq ochishga yordam beradi.

#### KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH

Kurs ishining umumiy hajmi (ilovalarsiz) A4 formatidagi 45 betdan 60 betgacha etib belgilangan. Kurs ishi hajmi tanlangan mavzu, ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik va ishning texnik bajarilishi esa qo'l yozma bo'ladi.

Matni quyidagi qoidalariga amal qilib yozish (pechatlash) kerak: bet chegarasidan matngacha- chap tomondan 25 mm, o'ng tomondan 10 mm, yuqorigi va pastgi chegaralardan 10 mm. Sahifa raqami pastki o'ng burchakka yoziladi. Abzaslar 10 mm bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Kurs ishida qatorlar orasidagi interval 10 mm bo'lishi kerak. Qalin shrift faqatgina sarlavhalarda ishlatilishi mumkin. Kursiv shrift ishlatilishi mumkin emas. Kurs ishi lotin alifbosi harflarida yozish talab etiladi.

Iqtiboslar to'g'ri rasmiylashtirilishi zarur, ya'ni muallif nutqi qo'shtirnoq ichida berilishi va manbasi aniq ko'rsatilishi kerak.

#### KURS ISHLARINI BAHOLASH TARTIBI

Kurs ishini baholash mezoni talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qilishi zarur.

Kurs ishlari sifat darajasiga qarab tabaqalangan holda baholangani maqsadga muvofiqdir. Reyting tizimi bo'yicha talabanning kurs ishini 5 ballik tizim asosida baholanadi.

<b>№</b>	<b>Belgilangan ball</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
1	“A” o’- “5” baho	Rejadagi savollarning mazmuni ijodiy yondoshilgan holda yoritilgan bo’lsa, foydalanilgan adabiyotlar va ma’lumotlarga snoskalar (ilovalar) berilib, adabiyotlar ro’yxatida ko’rsatilgan bo’lsa va ish bo’yicha berilgan savollarga aniq va to’liq javob berib, o’zining fikrini erkin bayon etsa bunday tayotlangan ishlarga «a’lo» baho qo’yish mumkin.
2	“Yaxshi” “4” baho	Agar rejadagi 4-5 savolning 3-4 tasiga to’liq javob yozilgan bo’lib, bittasiga etarlicha javob berilmagan bo’lsa, himoyada talabanning javob berishiga qarab «yaxshi» baho qo’yish mumkin.
3	“Qoniqarli” “3” baho	Rejadagi 4-5 ta savolning bita yoki ikkitasining mazmuni yoritilib, qolgan savollarga javob berilmagan bo’lsa, to’g’ri yozilgan javoblar ham darslik va kitoblardan ko’chirilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati yo’q, ilovalar berilmagan va boshqa shu kabi kamchiliklar bo’lsa, ko’rsatilgan kamchiliklar himoyagacha bajarilsa, talabanning javobini hisobga olib bu kabi ishlarni «qoniqarli» baholash mumkin. Agarda talaba yuqoridagi kamchiliklarni yozma ravishda bartaraf etmasa, kurs ishi «qoniqarsiz» baholanadi.
4	“Qoniqarsiz” “2” baho	Kurs ishida quyidagi kamchiliklarga yo’l qo’yilgan bo’lsa, u taqriz yozish davridayoq «qoniqarsiz» baholanadi: - reja noto’g’ri va umuman qoniqarsiz tuzilgan bo’lib, mavzuning mazmuniga mos tushmasa; - kurs ishi e’tiborsizlik bilan pala-parish bajarilsa; - javoblar asosan o’quv adabiyotlaridan ko’chirilgan bo’lsa; - foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati bo’lmasa; - foydalanilgan adabiyotlarga va ma’lumotlarga ilovalar berilmagan bo’lsa; - rejadagi savollar mohiyati biri ikkinchisidan ajratilmagan holda berilsa; - kurs ishini talabanning o’zi xusni xati bilan bajarmagan bo’lsa.



## I-ilova

### “IQTISODIYOT” FANIDAN KURS ISHI MAVZULARI

1. Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari.
2. Agrar munosabatlar va ularning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o' rmi.
3. Agrar sohaning milliy iqtisodiyotda tutgan o' rmi.
4. Agrobiznes va uning bozor tizimidagi xususiyatlari.
5. Aksionerlik jamiyatlari va ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o' rmi.
6. Aholi bandligini ta'minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish.
7. Aholi bandligi muammosining iqtisodiy mohiyati.
8. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari.
9. Aholining turmush darajasi ko'rsatkichlari.
10. Banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish.
11. Bandlik va ishsizlik, ularning darajalari va turlari.
12. Bank tizimi - moliya tizimining asosiy tarkibiy qismi sifatida.
13. Banklar, ularning turlari va kredit tizimidagi roli.
14. Birja - bozor infrastrukturasi asosiy bo'g'ini sifatida.
15. Bozor islohotlari mohiyati va o'tish davridagi o'ziga xos xususiyatlari.
16. Bozor munosabatlarini shakllantirishda infratuzilmaning roli.
17. Bozor iqtisodiyoti, uning shakllanishi va rivojlanish shart-sharoitlari.
18. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning andozalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
19. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida taqchillik va uni bartaraf etish vositalari.
20. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri, uning xususiyatlari va davomiyligi.
21. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli va uning o'ziga xos xususiyatlari.

22. Bozor iqtisodiy kategoriya sifatida.
23. Bozor infratuzilmasi, uning asosiy sohalari va unsurlari.
24. Bozor mexanizmi, uning tarkibiy qismlari va amal qilishi.
25. Bozorni segmentlashtirish va uning asosiy mezonlari tahlili.
26. Bozorning iqtisodiy mazmuni, uning vazifalari va turlari.
27. Byudjet taqchilligi, uni bartaraf etish yo'llari.
28. Byudjet: uning shakllanishi va taqsimlanishining iqtisodiyotdagi ahamiyati.
29. Davlat byudjetining kamomadlik muammosi va uni bartaraf etish imkoniyatlari.
30. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari.
31. Davlatning iqtisodiy vazifalari.
32. Davlatning moliyaviy siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.
33. Davlatning pul- kredit va monetar siyosati.
34. Daromad: mohiyati, shakllanishi va taqsimlanishi.
35. Daromadlar tengsizligi, uning ijtimoiy jihatlari.
36. Daromadlar tengsizligining vujudga kelishi va uning sabablari.
37. Yer rentasi va uning turlari.
38. Jamg'arma va unga ta'sir etuvchi omillar.
39. Jamiyatning iqtisodiy potentsiali va undan oqilona foydalanish yo'llari.
40. Jahon bozori va uning iqtisodiy mohiyati.
41. Jahon xo'jaligi taraqqiyotining hozirgi zamon xususiyatlari.
42. Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari.
43. Jahonning global iqtisodiy muammolari.
44. Ijtimoiy - iqtisodiy ehtiyojlarining mazmuni va ularning turkumlanishi.
45. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish, uning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi o' rmi.
46. Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga bo'lgan turli xil yondashuvlar.
47. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning andozalari.



48. Iqtisodiyot nazariyasi fanining jamiyat taraqqiyotidagi o'rimi.
49. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uning iqtisodiy muvozanatga ta'siri.
50. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati, shakllari va usullari.
51. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati va zarurligi.
52. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli.
53. Iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi.
54. Iqtisodiyotning tsiklligi to'g'risida turlicha nazariyalar.
55. Iqtisodiy o'sishning hozirgi zamon shakli va uning yangicha sifati.
56. Iqtisodiy jamg'arish mohiyati va manbalari.
57. Iqtisodiy inqirozlar, ularning turlari va namoyon bo'lish xususiyatlari.
58. Iqtisodiy inqirozlarning iqtisodiy mohiyati.
59. Iqtisodiy kategoriyalar va ularning amal qilish mexanizmi.
60. Iqtisodiy qonunlar va ularning amal qilish mexanizmi.
61. Iqtisodiy muvozanatlikning mohiyati va unga erishish yo'llari.
62. Iqtisodiy raqobat mohiyati, uni amalga oshirish zarurati.
63. Iqtisodiy rivojlanish to'g'risidagi asosiy nazariyalar.
64. Iqtisodiy o'sish - ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida.
65. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari.
66. Iqtisodiy o'sishning turlari va ahamiyati.
67. Iqtisodiy faoliyat va uning turlari.
68. Iqtisodiy xarajatlar tarkibi, ularni kamaytirish yo'llari.
69. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganish usullari.
70. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, turlari va ularning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
71. Investitsiyaning mohiyati, manbalari va shakllari.
72. Inflyatsiya mohiyati, uni bartaraf etish imkoniyatlari.
73. Inflyatsiya, uning kelib chiqishi va oqibatlari.

74. Iste'mol va unga ta'sir etuvchi omillar.
75. Ish haqi: mohiyati, turalari va prinsiplari.
76. Ish haqini tashkil etishning asosiy shakllari.
77. Ish haqining iqtisodiy mazmuni va tarkibiy qismlari.
78. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida.
79. Ishlab chiqarish omillari va ularga tavsifnoma.
80. Ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy mohiyati.
81. Ishlab chiqarish samaradorligi - korxonada faoliyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida.
82. Ishlab chiqarish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari.
83. Ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari.
84. Qiymat qonuni va uning vazifalari.
85. Qiymatning miqdori va unga ta'sir etuvchi omillar.
86. Qimmatbaho qog'ozlar bozorining o'ziga xos xususiyatlari.
87. Qimmatli qog'ozlar va ularning turlari.
88. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish - iqtisodiy erkinlikni ta'minlash omili sifatida.
89. Korxonada foydasining taqsimlanishi va ishlatilishi.
90. Korxonada xarajatlari, ularning tarkibi va turlari.
91. Krediting mohiyati va vazifalari.
92. Krediting mohiyati va moliya tizimidagi roli.
93. Makroiqtisodiyot, uning maqsadlari va vazifalari.
94. Makroiqtisodiyotning fundamental vazifalari.
95. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning tarkibi va mohiyati.
96. Makroiqtisodiy nisbatlar va unga ta'sir etuvchi omillar.
97. Marketing va uning asosiy vazifalari.
98. Marketing va uning vazifalari.
99. Menejment - korxonada boshqarish san'ati sifatida.



100. Menejment tushunchasi va uning tamoyillari.
101. Mehnat munosabatlari va ularning O'zbekistonda tartibga solinishi.
102. Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish - rivojlanish omili sifatida.
103. Mehnat unumdorligi va uning asosiy omillari.
104. Mehnat unumdorligi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.
105. Milliy boylik, uning tarkibi va ko'paytirish omillari.
106. Milliy boylik: mohiyati, tarkibi va ko'paytirish yo'llari.
107. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.
108. Moliyaviy munosabatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
109. Moliyaning mohiyati va vazifalari.
110. Monopoliyaga qarshi qonunchilik va uni O'zbekistonda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.
111. Mulkiylik munosabatlari-jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy vositalaridan biri sifatida.
112. Mulkiylik munosabatlari va ularning jihatlari.
113. Mulkiylik shakllarini o'zgartirish yo'llari va usullari.
114. Mulkiylikning shakllari va ularning amal qilishi.
115. Narx iqtisodiy kategoriya sifatida.
116. Narx turlari va ularga tavsifnoma.
117. Narxning mohiyati va vazifalari.
118. Natural va tovar xo'jaligi, ularning belgilari.
119. Xususiy lashtirish, uning zaruriyati va O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlari.
120. Pul muomalasi qonunining iqtisodiy mohiyati.
121. Pul tizimi va uning evolyusiyasi.
122. Pul to'g'risidagi turli xil nazariyalar va hozirgi zamon pulining tabiati.
123. Pulning iqtisodiy mohiyati.
124. Pulning mohiyati va asosiy vazifalari.
125. Raqobat - bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida.

126. Raqobat kurashining shakllari va usullari.
127. Raqobatning ob'ektiv asoslari va rivojlanish bosqichlari.
128. Raqobatning turli modellarda narxning shakllanishi.
129. Reklama- korxonalar marketingining asosiy vositalaridan biri sifatida.
130. Soliqlar va ularning vazifalari.
131. Sotsial - iqtisodiy tizimlar va ularning taraqqiyot bosqichlari.
132. Sotsial - iqtisodiy ehtiyojlarining tarkibi va qondirilish omillari.
133. Sug'urta tushunchasi va uning ahamiyati.
134. Sug'urta: mohiyati, tarkibi va iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni.
135. Tadbirkorlik kapitali, uning harakat bosqichlari va aylanishi.
136. Tadbirkorlik faoliyati, uning sarf - xarajatlari va foydasi.
137. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy shakllari.
138. Taklifning iqtisodiy mazmuni va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
139. Talab va taklifning o'zaro bog'liqligi. Bozor muvozanati va uning turlari.
140. Talab- taklif muvozanati- farovonlik garovi.
141. Talabning iqtisodiy mazmuni va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
142. Talab-taklif muvozanati farovonlik garovi.
143. Tannarxning mohiyati va uni kamaytirishning korxonalar uchun ahamiyati.
144. Tijorat banklari va ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni.
145. Tovar va uning xususiyatlari.
146. Transmilliy korporatsiyalar, ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni.
147. O'zbekistonda milliy pul tizimini mustahkamlash vazifalari.
148. O'zbekistonda soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
149. O'zbekiston tashqi savdo munosabatlari geografiyasining sifat jihatidan o'zgarib borishi.
150. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati.
151. O'zbekistonda davlatning pul-kredit siyosati, uning dastaklari va amalga oshirish vositalari.



152. O'zbekistonda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muammolari.
153. O'zbekistonda ishchi kuchi bozorining shakllanishi va rivojlanishi.
154. O'zbekistonda ko'p ukladli iqtisodiyotning va mulkdorlar sinfining shakllanishi.
155. O'zbekistonda milliy bozorni shakllantirish vazifalari.
156. O'zbekistonda milliy pul tizimini mustahkamlash vazifalari.
157. O'zbekistonda moliya bozorining shakllanishi.
158. O'zbekistonda moliya tizimini yanada takomillashtirish yo'nalishlari.
159. O'zbekistonda narx siyosati.
160. O'zbekistonda soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
161. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi.
162. O'zbekistonda xususylashtirish jarayonlarining bosqichlari va vazifalari.
163. O'zbekistonning jahon bozoriga kirib borish muammolari.
164. O'zbekistonning iqtisodiy resurs salohiyati va ulardan tejamli foydalanish yo'llari.
165. O'tish davri iqtisodiyoti nazariyasi.
166. Fan-texnika taraqqiyoti- iqtisodiy rivojlanish omili sifatida.
167. Fiskal siyosat, uning mohiyati va tashkiliy vositalari.
168. Foyda va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
169. Xalqaro valyuta munosabatlari.
170. Xalqaro valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi.
171. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, turlari va ob'ektiv asoslari.
172. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ularning faoliyati.
173. Xalqaro kapital bozori va uning rivojlanish asoslari.
174. Xalqaro kredit va uning jahon iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli.
175. Xalqaro mehnat taqsimoti va uning zarurligi.
176. Xalqaro savdo, uning turlari va tartibga solish mexanizmi.
177. Hissadorlik jamiyatlari va ularning tashkil etilishi.
178. Hozirgi bosqichda kasanachilik sohasi bandlik va oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbai sifatida.
179. Hozirgi davrdagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roliga qarashlarning o'zgarishi.
180. Hozirgi zamonning umumbashariy muammolari.
181. Xususiy mulkning mohiyati va O'zbekistonda uni rivojlantirish muammolari.
182. Xususiy mulkchilik tarmog'ini kengaytirish – mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida.
183. Ehtiyojlarining yuksalib borish qonuni.
184. Yagona tarif tizimi, uning maqsadi va vazifalari.
185. Yalpi ishchi kuchi va uning takror hosil etilishi.
186. Yalpi taklif va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
187. Yalpi talab va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
188. Yalpi talab va yalpi taklif nisbatlari.
189. YaMM va YalM, ularni hisoblash usullari.
190. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida O'zbekistonning o'rnini.



**KURS ISHI TITUL VARAG'INI RASMIYLASHTIRISH BO'YICHA NAMUNA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI**

**SERVIS SOHASI IQTISODIYOTI KAFEDRASI**

«IQTISODIYOT» fanidan

**KURS ISHI**

**Mavzu:** \_\_\_\_\_

**Bajardi:** \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_  
guruhi talabasi \_\_\_\_\_  
(ismi sharifi)

**Kurs ishi himoya qilingan sana** “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ **2021 y.**

**Baho** “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_  
(ismi sharifi)

**Komissiya a'zolari:** \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_  
(ismi sharifi)

\_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_  
(ismi sharifi)

**Buxoro – 2021 yil**

**KURS ISHI MAVZUSI REJASINI TUZISH BO'YICHA NAMUNA**

**Mavzu:** Inflatsiya: mohiyati, uni bartaraf etish imkoniyatlari

**MUNDARIJA:**

Kirish..... 4

1-bob. Inflatsiya ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida

1.1. Inflatsiya iqtisodiy kategoriya sifatida. Inflatsiya sabablari..... 7

1.2. Inflatsiya turlari..... 11

1.3. Inflatsiyaning asosiy oqibatlari .....15

2-bob. Inflatsiyaga qarshi kurash tajribasi.

2.1. Inflatsiyaga qarshi kurashning tarixiy tajribasidan ..... 19

2.2. Rivojlangan mamlakatlar ning Inflatsiyaga qarshi kurash tajribasidan..22

2.3. O'zbekistonda Inflatsiyaga qarshi kurashning asosiy usullari.....26

Xulosa..... 29

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... 31

Tayanch iboralar..... 32

Ilovalar.....33



## KURS ISHI UCHUN TAQRIZ

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

“Servis sohasi iqtisodiyoti” kafedrası

“Iqtisodiyot” fani

Guruh.....

Talaba familiyasi va ismi-sharifi.....

Kurs ishi mavzusi.....

Kurs ishining tarkibi.....

Kurs ishi himoyasida talabaga berilgan savollar ro'yxati.....

Jadval va grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko'rsatgichi).....

Kurs ishining ijobyi tomonlari.....

Kurs ishining kamchiliklari.....

Kurs ishiga qo'yilgan baho.....

Kurs ishiga rahbarning ismi-sharifi va imzosi.....

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этишимиз. – Т.: «Ўзбекистон», 2016. 56-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: «Ўзбекистон», 2017. 104-бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Билимни авлод – буюк келажакнинг, тadbirkor халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг қафолатидир (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи, 2018 йил 7 декабрь).- «Халқ сўзи» газетаси, 2018 йил 8 декабрь, № 253 (7211).
4. Мирзиёев Ш.М. Билимни авлод – буюк келажакнинг, тadbirkor халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг қафолатидир// «Халқсўзи», 2018 йил 8 декабрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлиси Мурожаатномаси // «Халқ сўзи», 2018 йил, 29 декабрь. № 271–272 (7229–7230)
6. Словарь современной экономической теории Макмиллана. – М.: 1997. 471-б.
7. Ўзбекистон Республикасининг сайланган Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси (2016 йил 7 декабрь).
8. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи (2016 йил 14 декабрь).
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. 2017 йил 19 сентябрь.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлиси Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь.
11. Тўлаганов Ш. «Бахт индекси»: энг бахтли мамлакатлар саралари ичида Ўзбекистон бор. <http://uz.uz/oz/society/bakht-indeksi-eng-bakhtli-mamlakatlar-saralari-ichida-zbekis-15-03-2018>
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлиси Мурожаатномаси // «Халқ сўзи», 2018 йил, 29 декабрь. № 271-272 (7229-7230).



13. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594.
14. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «Фаол тадбиркорлик, инновациялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили» да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида. № ПФ-5308. 22.01.2018. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.05.2018 й., 06/18/5447/1269-сон.
15. Мирзиёев, Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. «Халқ сўзи». 2018 йил 29 декабрь, № 271–272(7229–7230).
16. Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги ПФ-5505-сон Фармони.
17. Иқтисодий янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат самардорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 08.01.2019 йилдаги ПФ-5614-сон, Қучга кириш санаси 09.01.2019. Манба: Қонун ҳужжатлари
18. Маълумотлари миллий базаси, 09.01.2019 й., 06/19/5614/2437-сон № ПФ-5614. 08.01.2019.
19. Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. № ПФ-5177 02.09.2017.
20. Экспортга қўмаклашиш ва уни рағбатлантиришни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. 20.12.2018 йилдаги ПҚ-4069-сон, Манба: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 21.12.2018 й., 07/18/4069/2353-сон № ПҚ-4069 20.12.2018.
21. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасида маъмурий ислохотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги ПФ-5185-сон Фармони.
22. «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 03.01.2017 йилдаги ЎРҚ-419-сон, Манба: «Халқ сўзи», 2017 й., 2 (6696)-сон; ЎР ҚХТ, 2017 й., 1-сон, 2-модда № ЎРҚ-41903.01.2017.
23. «Ўзбекистон Республикасининг 2019 йилги асосий макроеқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджет параметрлари ҳамда 2020–2021 йилларга бюджет мўлжаллари тўғрисида» № ПҚ-408626.12.2018 Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 26.12.2018 йилдаги

24. ПҚ-4086-сон, Қучга кириш санаси 28.12.2018. Манба: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.12.2018 й., 07/18/4086/2354-сон.
25. Ўзбекистон Президентининг БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясидаги нутқи жазон оммавий ахборот воситалари нигоҳида. <http://uz.uz/oz/politics/zbekiston-prezidentining-bmt-bosh-assambleyasi-26-72-sessiyasi-22-09-2017>.
26. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 ноябрдаги «Қишлоқ жойларда ва фуқароларнинг айрим тоифалари учун арзон уй-жойлар қуришни кенгайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги ПҚ-4028 сонли Қарори // <http://lex.uz>.
28. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 январдаги «Иқтисодий ривожланиш соҳасида давлат сиёсатини амалга ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5621 сонли Фармони // <http://lex.uz>.
29. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон.
30. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: «Ўзбекистон», 2016. 56-бет.
31. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: «Ўзбекистон», 2017. 104-бет.
32. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг қафолатидир (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи, 2018 йил 7 декабрь) – «Халқ сўзи» газетаси, 2018 йил 8 декабрь, № 253 (7211).
33. Қадр-қимматим, таянчим, ва ифтихоримсан, мустақил Ўзбекистон. Т.Маънавият. 2013.
34. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг қафолатидир // «Халқсўзи», 2018 йил 8 декабрь.
35. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси // «Халқ сўзи», 2018 йил, 29 декабрь, № 271–272 (7229–7230)
36. Словарь современной экономической теории Макмиллана. – М.: 1997. 471–6.
37. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. // <http://uz.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliysi-28-12-2018>.
38. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови». Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 24 йиллигига



- багишланган тантанали маросимдаги маъруза. – Т.: «Ўзбекистон», 2017. 18-б. (48 б.)
39. Фредерик Старр: «Ўзбекистон канча кудратли бўлса, минтака ҳам шунча кудратли бўлади» // <http://xs.uz/uzkr/post/frederik-start-ozbekiston-dan-cha-qudratli-bolsa-mintaqa-ham-shuncha-qudratli-boladi>.
40. Маматов Б.С., Хужамкулов Д.Ю., Нурбеков О.Ш. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Дарслик. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2014. 80-б. (608-б.)
41. Ўзбекистонга тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар асосан қайси соҳага киритилмоқда? // <https://kun.uz/news/2018/10/17>.
42. Марказий Осиё инвесторларни нимаси билан жалб этиши мумкин? // <https://kun.uz/news/2018/10/21>.
43. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2017 йилдаги фаолияти тўғрисида ҳисобот, 2018 йил.
44. Монетар сиёсатнинг 2019 йил ва 2020–2021 йиллар даврига мўлжалланган асосий йўналишлари. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки, 2018 йил. 100-бет.
45. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Мурожаатномасини кенг жамоатчилик ўрнатиш тарғиб этишга бағишланган илмий-оммабоп қўлланма. – Т.: «Маънавият», 2018. 112–113-бетлар.
46. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Т.: "Adolat", 2001.
47. Shodmonov Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – Т., «Media» nashriyoti, 2013. – 794 b.
48. Shodmonov Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – Т., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 734 b.
49. O'Imasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – Т.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006. – 480 b.
50. Экономическая теория.: Учебник. /И.К.Станковская, И.А.Стрелец. 3-е изд., испр. – М.: «Эксмо», 2009. – 448 с.
51. Экономика.: Учебник. /Самуэлсон Пол Э., Нордхаус Вильям Д. 18-е изд.: Пер с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2009. – 1360 с.
52. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник. /Макконнел К.Р., Брю С.Л. 17-изд. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 916 с.
53. Экономическая теория. Микроэкономика-1,2.: Учебник. /Под общ. ред. – М.: «Дашков и К», 2008. – 934 с.
54. Экономическая теория.: Учебник. /С.С.Носова. 2-е изд., стер. – М.: «КРОНУС», 2008. – 800 с.
55. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik (lotin yozuvida). – Т.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 320 b.
56. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. Т.: TDIU, 2007.

57. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Т.: TDIU, 2007.
58. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. – Т.: TDIU, 2009.
59. Shodmonov Sh., G'afurov U. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – Т.: TDIU, 2007.
60. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – Т.: TDIU, 2007.
61. Shodmonov Sh., Baubekova G.D. Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii. – Т.: Yangi asr avlodi. 2004. 63. Shodmonov Sh., Baubekova G.D. Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii. – Т.: Yangi asr avlodi. 2004. Т.: TDIU bosmaxonasi. 2007.
62. Shodmonov Sh., Minovarova G va Xalilov M. "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy majmuasi. "Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi" seriyasidan. Т.: TDIU, 2007, 277 b.
63. Shodmonov Sh va Minovarova G. "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy ta'lim texnologiyasi. "Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi" seriyasidan. Т.: TDIU, 2007, 323 b.
64. Экономическая теория для бакалавров: учеб. пос./С.С.Носова, В.И.Новичкова. – М.: КНО РУС, 2009. – 368 с.
65. Экономическая теория: Новейшие течения Запада: /Худокормов А.Г. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 416с.
66. История экономических учений. учебное пособие./Под ред. В.Автономова, О.Ананьина, Н.Макашевой. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 784 с.
67. Экономическая теория: Экспресс курс: учеб. пос./ кол. авторов; под. ред. Грязновой А.Г. и др. 4-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2008. 608 с.
68. Экономическая теория: Экспресс курс: учеб. пос./ кол. авторов; под. ред. Грязновой А.Г. и др. 4-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2008. 608 с.
69. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. – Т.: Moliya. 2002.
70. Современная экономическая теория: проблемы разработки и преподавания./ Под ред. Хубиева К.А. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2002.
71. Шаститко А.Е. Новая институциональная экономическая теория. М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2002.
72. Развитие отраслей социальной сферы в переходной экономике./Под ред. Е.Н.Шилцова, П.Н.Поманова. – Экономический факультет МГУ, ТЕИС. 2001.
73. Курс экономической теории: Общие основы экономической теории. Микроэкономика. Макроэкономика. Основы национальной экономики: Микр



Учебное пособие / Под ред. д.э.н., проф. А.В.Сидоровича. – М.: «Дело и Сервис», 2001.

74. Мишкевич А.А. Сборник заданий по экономике. В.3-х книгах. Кн. 1. Задачник по микроэкономике с решениями. – М.: Вита-Пресс, 2001.

75. Bekmurodov A., Boltaboev M., G'oyibnazarov B., Amonboev M., Toshxo'jaev M. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 1-qism. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. T.: TDIU, 2005. – 60 b.

76. Bekmurodov A., Hakimov R., Safarov B., Zaxidov G. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 2-qism. Qishloq xo'jaligida islohotlar va fermerlik harakati. T.: TDIU, 2005. – 58 b.

77. Bekmurodov A., Sattorov S., To'raev J., Soliev Q., Ro'ziev S. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 3-qism. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. T.: TDIU, 2005. – 67 b.

78. Bekmurodov A., Tojiev R., Qurbanov X., Alimardonov M. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 4-qism. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. T.: TDIU, 2005. – 63 b.

79. Bekmurodov A., Toirov Sh., Maxmudov E., Isakov M., To'raev N. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 5-qism. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari. T.: TDIU, 2005. – 62 b.

80. Hamroev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari. – T.: TDIU, 2004.

81. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

82. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.

83. [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz) – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

84. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

85. [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

Muharrir: A. Qalandarov  
Texnik muharrir: G. Samiyeva  
Musahhah: Sh. Qahhorov  
Sahifalovchi: M. Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-  
maketdan bosishga ruxsat etildi: 30.05.2021. Bichimi 60x84.  
Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma  
usulida bosildi. Ofset bosma qog'oz. Bosma tobog'i 1,7. Adadi  
100. Buyurtma №173.

“Sadriiddin Salim Buxoriy” MCHJ

“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriiddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45